

YOSHLARNING PSIXOTROP DORILAR VA SPIRTLII ICHIMLIKLARGA RUJU QO'YISHINING TIBIIY VA PSIXOLOGIK ZARARLARI

Xamidov Sunnat Abdujabbor o'g'li

Annotatsiya: Bugungi kunda butun yer yuzida ilm-fan va axborot texnologiyalari juda tez sur'atda rivojlanib borayotgan bir davrda, insoniyatni yashash tarzi yengil kechmoqda shu sababdan insonlarda turli psixotropik dori va alkagol mahsulotlari iste'moli katta yoshli insonlar va yoshlar orasida juda ko'p uchramoqda.

Yoshlar orasida kechayotgan turli xil zararli illatlar va psixotropik dorilar istemol qilish natijasida turli kasalliklar, psixologik inqirozlar yuzaga kelib chiqishi jamiyatimizda kuzatilmoqda bugun manshu illatni yo'qotish haqida ushbu maqolada yechim va fikirlarni keltirib o'taman.

Kalit so'zlar: rak, vitamin, qimor, vabo, zardeks, kakayin, klasstiferol

KIRISH

Bugungi kunda butu dunyoda yuzaga kelayotgan global muammo darajasiga aylanib borayotgan achinarli tomoni yoshlar orasida sog'lom tanaga, sog'lom aqlga ega bo'lagan yoshlar turli xil narkotik moddalar va psixotrop dorilarni ya'ni "Teopikamid", "Lirika", "Zardeks", "Marexuanna" singari insoni hushidan ayiruvchi moddalarni kayf safo ilinjida iste'mol qilishi singari turli yomon holatlar, botqoqlikga tortuvchi nopok ishlarni qilsh holatlari yangi asr yoshlari orasida juda sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin. Aslida bu dorilar ko'z yoki boshqa tana a'zolari kasalliklarini davolashda foydalaniladi.

Bunday narkotika va alkogolizm odam organizmidagi hamma sistemalar va a'zolar faoliyatiga putur yetkazadi. Psixotropik dori istemol qiluvchilar, ichkilikga ruju qo'ygan odam o'zi ichayotgan ichkilik, dorilar miqdorini bilmay qo'yadi, markaziy va periferik nerv sistemasi faoliyati buzilishi oqibatida (psixik kasalliklar, nevrillar va boshqa paydo bo'ladi), ichki a'zolar funksiyasi izdan chiqadi. Spirtli ichimlik va narkotikaning zaharli ta'siri moddalar almashinuvi, ayniqsa vitaminlar almashinuvining buzilishiga olib keladi. Nashavand va ichkilikboz odam qo'l barmoqlari, ko'z qovoqlari, til uchining titrab turishi, shuningdek har kuni bajarib yurgan odatdagi ishini bajara olmay qolishi mumkin.

Ko'p ichadigan odamda ko'z xiralashib, ba'zan quloq ham og'ir tortib qoladi. Narkotika me'daga ta'siri natijasida shu a'zoning barcha funksiyalari buziladi. Ichkilik ayniqsa jigarga zararli ta'sir ko'rsatib, jigar sirrozi yuzaga keladi.

Alkogolizm pankreatit, qand kasalligi, stenokardiya va miokard infarkti kasalliklariga ham sabab bo'ladi. Ichkilik ichki sekretiya bezlari va birinchi galda jinsiy bezlarga zarar qiladi, mijoz susayib, jinsiy zaiflik paydo bo'ladi. Ayollar ichkilik ta'sirida tez so'lib qoladi, pushti susayib, homiladorlik vaqtida har xil asoratlar ko'proq uchraydi. Mudom ichib yurish kishining barvaqt qarib, nogiron bo'lib qolishiga olib keladi. va spirtli ichimlik iste'mol qilgan bolalarda qon aylanish tizimi normasi buzilishi, jigar yalig'lanishi, oshqozon

buzulishi, ichki va o'g'iz rak kasalliklariga ham uchrashi mumkin. Narkotik dori, no qonuniy dori, spirtli ichimliklar oldi sotdi qilgan shaxshlar bilan bog'liq jami 25 ta qonun va qonun osti 70 ga yaqin normativ me'yoriy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib o'zgartirish kiritilgan va qabul qilingan. Psixotrop vositalar kiradigan fenotiazin hosilalari teratogen ta'sir ko'rsatadi. Ular fokomeliyani keltirib chiqarib, oyoq-qo'llarning kuraksimon shakllanishiga sabab bo'ladi. Vitamin A (retinol) ning katta dozalari homilaning tanglayini yemiradi. Vitamin B (klasstiferol) kortikosteroid gormonlar hosil bo'lishini susaytiradi, embrionning o'sishini sekinlashtiradi, uning oyoq-qo'l, bosh, umurtqaning bo'yin qismi suyaklarining rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi.

ASOSIY QISM

Narkotik moddalar va psixotropik dorilar olib yurish, tarqatishlar qonunga xilof ravishda sotish, qimorga chorlovchi o'yinlari, o'tkazish, tarqatish yoki ularda ishtirok etish, insonlar bilan ayri boshlash bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 75 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Qimorga va narkotik doriga qaramlik - bu ko'plab salbiy psixologik, jismoniy va ijtimoiy ahloqning buzulish oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan progressive «giyohvandlik» hisoblanadi.

Psixotropik dori, spirtli ichimlik, narkotikaning istemoli arziymasdek ko'rinishi mumkin lekin bular yoshlar hayot tarzini buzadi.

Surunkali alkogolizm, narkotika, psixotrop dori istemoliga bo'lgan ehtiyoji rivojlanishi bilan qaram odamda salbiy fazilatlar kuchayadi, u xudbin, qattiqqo'l va boshqalarga toqat qilmay qoladi. U o'z nuqtai nazarini har qanday qarshilikni g'azab va tajovuz bilan qabul qiladi, shuning uchun uni turmush tarzini o'zgartirishga harakat qilish juda mushkul. Uning uchun hamma narsaning markazida alkogol, narkotika va u bilan bog'liq narsalar turadi. Asta-sekin, qaram odam o'z ishiga, oilasiga qiziqishni yo'qotadi, u yaqinlarining ehtiyojlari haqida qayg'urishdan to'xtaydi.

Vaqt o'tishi bilan ichkilikka va turli dorilarga xirs qo'yish tobora kuchayib, kishi huddi haddan tashqari ochqolgan, chanqagan odam ko'yiga tushadi, shunda uning ko'z qorachiqalari kengayib, a'zoyi badanini ter bosadi. Mastlikning birinchi holatdagi beradigan rohati ham kamayadi, u endi insonni bo'shashtirmaydi, tinchlantirmaydi ham, aksincha serharakat, tinib-tinchimas qilib qo'yadi. Bemor ichkilik ichmagan vaqti lanj, parishonxotir ahvolda bo'ladi, ammo ichib olgach jonlanib, harakatlari chaqqonlashadi. Lekin bunday ko'ngil hushlikdan u tezgina tajanglik, g'azabga tushadigan, yig'layveradigan holatga o'tib qolishi, shuningdek, unda o'rinsiz rashk, janjalkashlik, bosqinchilik ruhi paydo bo'lishi mumkin

Psixotropik dorilarga bolalarda moyillik va qaramlilikni yuzaga keltirib chiqaradigan asosiy sabab bolalarning qarovsiz qolishi, o'zini yolg'iz his etishi, ota ona yaqin insonlaridan olmagan mehrni ko'chadan izlashi, oiladagi nizolar, ota-onalarning farzandiga nisbatdan zo'ravonlik qilishi, shunga o'xshash vaziyatlar bolaning sekin asta nerv tizimini yemira boshlaydi, ko'pchilik ota-onalar bolani juddalar oshirib yuborilgan qattiqqo'llik

bilan boshqarishga harakat qilish, bolani birdan hamma narsadan mahrum qilish choralarini qo'llashlar, aslida bunday qilib bolalarni bloklashga harakat qilishlar bolaning ruhiyatiga va psixologiyasiga noto'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaqtlarda bolalarning ruhiyati va psixologiyasida o'zgarish bo'layotgan bo'ladi bunda bolaga extiyotkorlik bilan muomala qilish kerak bo'ladi. Bolani qatiq qo'lik qilib tarbiyalagan yaxshi lekin buning ham meyorini belgilay bilishimiz kerak meyordan ortib ketsa yuqoridagi psixik, fiziologik holatlar yuzaga keladi.

Agar bola kuchli narkanlik, psixotropik dori istemolchisi, alkogolistlikning oldini olishda alkogolizm belgilari paydo bo'lganda, ichkilikbozni narkologiya shifoxonalariga yotqizib, uzoq vaqt davomida narkolog vrach kuzatuvida muntazam davolanishni tashkil qilish kerak, ayrim bolalarni sog'lig'ini tiklashiga realibitatsiya markazlari ham yordam bermasligi mumkin unga bunday qaramlikdan chiqishiga yordam bera oladigan insonlar uning ota-onasi va yaqin kishilari bo'ladi. Ko'pchilik ota-ona farzandini psixotrop dori iste'mol qilishini payqagan bo'lsa farzandini kaltaklashi yoki uni kuchli so'roq ostiga olishi yo'li bilan qaytarmoqchi bo'lishadi, lekin vaziyatda foyda bermaydi. Bolaning ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishni sekin astalik bilan ota onalar farzandini yoniga chaqirib og'ir vazminlikda do'stona suhbat olib borishi, uning qilayotgan ishi noto'g'ri ekanligini, chuqur afsusga tushishga majbur qiluvchi gaplar gapirish va iliq munosabat bildirishi orqali bolalar psixotropik dori ta'siridan chiqib ketishiga ancha yordam beradi. Narkolog Nargiza Sodiqova olib brogan tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatadiki, kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarini sog'lom organizm qabul qilganda zararli xususiyatlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda zaharga aylanadi, shu bilan birga insoni o'lim holatiga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ayta olamizki bugungi kun yoshlarini jamiyki insonlar virtual hayotga qiziqishi ortishi va real hayotga bo'lgan qiziqishi kamayib borishi oqibatida, zerikish, stress, tushkunliklardan chiqaman deb noto'g'ri o'ylar bilan turli ishlar qilishi alkagol va psixotropika mahsulotlari istemol qilishi va shunga qaram bo'lib qolish holatlarini bugungi kunda juda ko'p uchratmoqdamiz bu illatdan qutilish, qo'shilib qolmaslik uchun inson birinchi navbatda o'zini o'zi tarbiyalashi, o'zini doimiy ravishda biron bir ish bilan band qilib boorish, doimo mazmunli va o'zi yoqtirgan mashxulot bilan shug'ullanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Hozirgi vaqtda asosan o'rta maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarni oldini olish uchun krizis davri bolada yengil o'tish uchun ota-ona va o'qituvchi hamkorligida ishlagan holda ushbu yuqoridagi keltirilgan illatlar bolada yuzaga kelmasligini oldini olishimiz kerak. Zero kasalni davolagandan uni oldini olish chora tadbirlarini ko'rish har doim yaxshi samara beradi.

ADABIYOTLAR:

1. "Farmakologiya bilan retseptura" K.X.Postnova
2. "Farmakologiya" S.S.Azizova

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2000-yil.
4. „Syrynkali alkogolizm“. Qaraldi: 2022-yil 28-avgust.
5. Salomatlik ensiklopediyasi, 1985-yil — 450-bet.